ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**TAHRIR HAY'ATI:**

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:**
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

**EDITOR IN-CHIEF:**
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

# МУНДАРИЖА

## TILSHUNOSLIK


**PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH**
So‘zning lingvistik tabiati xususida ..... 7

**HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA**
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini ..... 11

**ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH**
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil ..... 16

**ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH**
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi ..... 22

**G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI**
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili ..... 26

**NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA**
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv ..... 29

**NORKUZIYEVA DILDORA**
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili ..... 33

**ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA**
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita ..... 38

**AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA**
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) ..... 41

**AMONOVA ZAMIRA**
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi ..... 44

**NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI**
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari ..... 53

**TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA**
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari ..... 56

**KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI**
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari ..... 60

**OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA**
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir ..... 63

# МУНДАРИЖА

**ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI**
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili ..... 65

**O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH**
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati ..... 68

**JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA**
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya ..... 72

**MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA**
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) ..... 76

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН**
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий ..... 80

**SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA**
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal ..... 85

**ABDULLAYEV RAMAZON**
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him ..... 88

**JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,**
**EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH**
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri ..... 93

**ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI**
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar ..... 97

**PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI**
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari ..... 100

**JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI**
Usmon Azim nasrida lirik ohang ..... 103

**FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA**
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters ..... 106

## TA’LIM

**MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,**
**BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA**
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) ..... 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# ANALITIK FOLKLORIZMLARNING POETIK XUSUSIYATLARI

**Payg'amova Shirin Jakbarali qizi,**
*Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

Xalq og'zaki ijodi har bir millatning tarixiy xotirasi va ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan birlamchi manba hisoblanadi. Adabiyot esa shu madaniy boylikning badiiy talqini sifatida shakllanadi. Shu bois folklor va yozma adabiyot munosabati masalasi adabiyotshunoslikda doimo dolzarb bo'lib kelgan. Mazkur jarayonning amaliy ko'rinishi sifatida folklorizm tushunchasi shakllangan bo'lib, u folklor terminidan farqlanadi va yozma adabiyotda xalq og'zaki ijodi unsurlarining badiiy talqinini anglatadi.

B. Sarimsoqov mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: "Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan bir ishlov berilgan bo'ladi"[1]. Boshqacha aytganda, folklorizm xalqona obrazlar, timsollar, janrlar, nutq vositalari, marosim va urf-odatlar, mifologik tasavvurlar hamda tarixiy xotiraning yozma adabiyotda qayta badiiy talqin qilinishi jarayonidir.

B. Sarimsoqov folklorizmlarni struktura va badiiy asar to'qimasida bajargan vazifasiga ko'ra ikki guruhga, ya'ni oddiy va murakkab folklorizmlarga ajratadi. Murakkab folklorizmlar esa o'z navbatida analitik, sintezlashgan va stilizatsion folklorizmlarga bo'linadi. Ushbu maqolaning maqsadi badiiy adabiyotda analitik folklorizmlarning mohiyati, turlari va badiiy vazifasini aniqlashdan iborat. "Analitik folklorizmlar asarning badiiy to'qimasi va yetakchi g'oyasi bilan organik birikib keta olmasligi jihatdan farqlanadi"[2].

Tadqiqotda adabiy tahlil, qiyosiy-tipologik va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy-nazariy manbalar asosida analitik folklorizm haqidagi qarashlar tizimlashtirildi, badiiy matnlardagi folklor unsurlarining shakl va mazmun jihatdan o'zgarishi aniqlanib, ularning g'oyaviy va poetik vazifasi izohlandi. Analitik folklorizmlar nazariy jihatdan B. Sarimsoqov, I. Yormatov va L. Sharipova qarashlari asosida baholandi, amaliy jihatdan esa zamonaviy va klassik adabiyot namunalarida kuzatilgan misollar orqali yoritildi.

B. Sarimsoqov analitik folklorizmning vazifasi haqida so'z yuritar ekan, "Analitik folklorizmning asosiy vazifasi asar bosh g'oyasini qabartirib ifodalash, unga ramziy, falsafiy ruh bag'ishlashdan iborat"ligini qayd etadi[3]. Olimning ta'kidlashicha, analitik folklorizm adabiy asarlarda asosan ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: birinchisida folklor unsurlari o'zining dastlabki, ya'ni folklordagi to'liq shaklida qo'llanadi, ikkinchisida esa mazmun saqlangan holda shakl jihatidan o'zgartiriladi va ko'pincha badiiy ishlov berilgan tarzda keltiriladi. B. Sarimsoqov tasnifini I. Yormatov davom ettirib, analitik folklorizmni vazifasiga ko'ra to'rt guruhga ajratadi.

1. "Analitik folklorizm asarning bosh g'oyasi yoki mavzusiga ramziy aloqador bo'lgan voqea-hodisalarni mujassamlashtiruvchi epizod, badiiy to'qima bo'lagi sifatida qo'llanadi.

2. Analitik folklorizm asarning badiiy to'qimasida to'liq ishtirok etsa-da, u bilan organik birika olmaydi.

3. Analitik folklorizm qahramon ruhidagi ichki dramatik kolliziyalarni ochib berish uchun muayyan epizodda adabiy omil sifatida qo'llanib keladi.

4. Analitik folklorizm vaziyat talabiga ko'ra ma'lum bir epizoddagina qo'llanilib, qahramon hayotida sodir bo'layotgan voqealarning reallashuviga yordam beradi"[4].

L. Sharipova I.Yormatovning mazkur tasnifida analitik folklorizmlarning o'rni va vazifasi qorishtirib yuborilganini, ayrim chalkashliklar mavjudligini ko'rsatib, unga o'zgartirish kiritishga harakat qiladi[5]. Olimaning tasnifiga ko'ra, analitik folklorizm asardagi ishtirokiga qarab ikki ko'rinishda bo'ladi. Birinchi-

[1] **Саримсоқов Б.** Фольклоризмлар типологиясига доир // XX аср ўзбек фольклоршунослиги. Антология / тузувчилар: О. Тўлабоев ва бошқ. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017. – Б. 351.

[2] Shu manba – B.354.

[3] **Саримсоқов Б.** Фольклоризмлар типологиясига доир // XX аср ўзбек фольклоршунослиги. Антология / тузувчилар: О. Тўлабоев ва бошқ. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017. – Б. 354.

[4] Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари // ЎТА, 1982, -сон, 57-58-бетлар.

[5] Шарипова Л. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол.фан.номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 44.

si syujetning boshidan oxirigacha ishtirok etadigan folklorizm bo'lib, syujet davomida eslatib turiladigan afsona yoki rivoyatga tayanadi. Ikkinchisi epizodik folklorizm bo'lib, syujetning muayyan joyida ma'lum vazifa bajarishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1. Asarning bosh g'oyasi yoki mavzusiga ramziy aloqador epizodik folklorizm.

2. Qahramon ruhiyatidagi ichki kolliziyani ochib beruvchi epizodik folklorizm.

3. Qahramon hayotida sodir bo'layotgan voqealarni aniqlashtirishga xizmat qiluvchi epizodik folklorizm.

Mazkur yondashuv folklorizm hodisasini badiiy kompozitsiya va syujet tizimi bilan bog'lab tahlil qilish imkonini kengaytiradi hamda analitik folklorizmning ilmiy talqinini aniqroq va izchilroq shaklga keltiradi.

B. Sarimsoqov analitik folklorizmlarning o'rni va ahamiyati klassik adabiyotda ham yorqin aks etishini ta'kidlab, Alisher Navoiy asarlarida, jumladan, Hayrat ul-abror va Mahbub ul-qulubda keltirilgan kichik hikoyatlar muayyan masalaning mohiyatini yorqin va ta'sirchan ifodalash uchun xizmat qilishini qayd etadi[1].

Umuman olganda, analitik folklorizmlar asar g'oyaviy-badiiy tizimi bilan to'liq uyg'unlashmasa-da, muallif tomonidan maqsadli kiritilgan folklor motivi yoki syujet orqali matnga qo'shimcha falsafiy-didaktik mazmun berish, tasvirning emotsional kuchini oshirish va badiiy ifodani boyitish vazifasini bajaradi. Analitik folklorizmlar ijodkorning individual uslubi va badiiy mahoratiga bog'liq holda turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lib, adabiyotimizning deyarli barcha taraqqiyot bosqichlarida uchrab keladi.

Xalq og'zaki ijodi barcha asarlarining ilhom manbai bo'lgan yozuvchi Isajon Sulton ijodida analitik folklorizmlarning yorqin namunalarini ko'rish mumkin. Ijodkorni qadimiy asotirlar, afsona va rivoyatlarga yetaklaydigan omil uning boy ijodiy tasavvuri va badiiy tafakkuridir. Yozuvchining "Qo'riqchi" hikoyasi bir qarashda sodda voqelik, ya'ni bir bek yigit va oy qizning sevishib, oila qurishi va turmushning mashaqqatlarini boshidan kechirishini tasvirlaydi. Ammo yozuvchi bu jarayonni qo'riqchi, ilon, qush, karvon, daryo kabi poetik obrazlar tilidan hikoya qildiradi. Ana shu usul hikoyaning badiiy qatlamida analitik folklorizmni yuzaga keltiradi.

Isajon Sulton hikoyalarini tadqiq qilgan F. Qurbonova ekinlar orasida qaqqayib turgan, ovozi faqat shabada va quyosh bo'lgan paytda chiqadigan, hamma voqealarni kuzatuvchi obraz, ya'ni qo'riqchi ijodkorning o'zi ekanligini ta'kidlaydi[2]. Yozuvchi bu obrazni analitik talqinda, hozirgi zamon ijodkorining ruhiy holati bilan uyg'unlashtiradi. Hikoyada daryo, baliq, oq ilon, yo'lchivin kabi obrazlar ham mavjud bo'lib, ular mos ravishda hayot yo'li, iztirob, aql, mazmunsiz umr kabi ramziy ma'nolarni aks ettiradi.

Hikoyadagi qadim e'tiqodlar bilan bog'liq, ezgulik ramzi bo'lgan oq ilon haqidagi hikoya "Men oq ilon, oppoq ilon edim, oydinda yotar edim" degan satrlar bilan boshlanadi. Matndagi oq ilon obrazi uyg'otuvchi assotsiatsiya qadim e'tiqod va ishonchlar asosida paydo bo'lgan. Xalq oq ilonni aziz sanab, uni e'zozlash yaxshilikka, aksincha munosabat yomonlikka olib keladi, deb ishonadi. Odamlarning oq ilon ezgulik keltirsin degan niyatda un sepib, sut bilan siylashlari shundan. Asarda oq ilon bek yigitning qasamidan xavotirlanadi, oila qurishning mas'uliyatini eslatadi, inson taqdiridagi ko'rinmas xavf haqida ogohlantiradi. Natijada oq ilon folklordagi ezgulik ramzi bilan bir qatorda aql timsoli sifatida ham talqin etiladi.

Mazkur hikoyada ayol va karvonboshi tilidan aytilgan bir necha qo'shiqlar xalq qo'shiqlari bo'lishi bilan birga, ushbu qahramonlarning orzu-istaklari, armonlari va ruhiyatini siqayotgan dardlarini yuzaga chiqarish vazifasini bajaradi.

*"Oh urarman, oh ursam, ohlarim tutsin seni,*
*Ko'z yoshim daryo bo'lib, baliqlari yutsin seni"*[3].

Ayol tilidan aytilgan bu qo'shiqda so'zning magik qudrati yuzaga chiqadi. Orzulari sarobga aylangan ayol endi bu ko'rguliklarning sababchisi bo'lgan yigitni qarg'aydi. Ana shu qarg'ishlar ostida qahramon ruhidagi ziddiyatlar namoyon bo'ladi. Olqishlar va qarg'ishlar folklor janrlariga mansub bo'lib, ulardan badiiy asarda foydalanish analitik folklorizmlarni hosil qiladi.

S. Mamayusupova Shukur Xolmirzayev hikoyalarini o'rganib, ularda analitik folklorizmlar ko'plab uchrashini ta'kidlaydi. Xususan, "O'zbek bobo" hikoyasida "Barakallo, Xudoyim quvvat bersin!", "Yo, Xudo o'zing qo'lla", "Qo'li dard ko'rmasin", "Ha, barakallo, jiyan, yashanglar!", "He, barakallo, polvon, bo'shashmang", "E, kam bo'lmang, Abil aka, qo'llaringiz dard ko'rmasin, iloyim", "He, bor bo'linglar, ullarim", "Omin, dasturxoning hamisha mana shunday ma'mur-u moyli bo'lsin, kasb-koringga kushoyish bersin, risoladagiday bog'bon bo'psan – baraka top, Allohu akbar", "Mening miyam chirisin", "Omon bo'lsinlar" kabi o'nlab xalq olqishlari, qarg'ishlari va

[1] **Саримсоқов Б.** Фольклоризмлар типологиясига доир // XX аср ўзбек фольклоршунослиги. Антология / тузувчилар: О. Тўлабоев ва бошқ. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017. – Б. 355.

[2] **Kurbanova F.** Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Farg'ona, 2023.

[3] **Исажон Султон.** Қўриқчи.// Асарлар. Ҳикоялар. 1- жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Б. 212.

duo-fotihalari o'rin olgan[1]. Shukur Xolmirzayev analitik folklorizmlardan qahramonlar xarakterini ochish, badiiy ta'sirchanlikni oshirish va milliy koloritni ifodalashda o'rinli foydalangan.

Demak, bu turdagi folklorizmlar qahramonlarning ichki kechinmalarini, ya'ni mehr-muruvvat, iztirob va ziddiyatlarini ifodalashga xizmat qilgani uchun L. Sharipova tasnif etgan epizodik analitik folklorizmlarning ikkinchi turiga, ya'ni qahramon ruhiyatidagi ichki kolliziyani ochib beruvchi epizodik folklorizmlarga kiradi. Biroq mazkur guruh nomlanishida biroz xususiylik seziladi. Qarg'ishlar qahramon ruhiyatidagi ziddiyatlarni ifodalasa-da, olqishlarda bunday jihat to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu sababli olqishlar va duo-fotihalarni qarg'ishlar bilan bir qatorda bir turkumdagi epizodik analitik folklorizm sifatida baholash uchun bu guruhni qahramon ichki kechinmalarini ochib beruvchi epizodik folklorizm deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, analitik folklorizmlar asar g'oyaviy-badiiy tizimi bilan to'liq uyg'unlashmagan bo'lsa-da, muallif tomonidan ongli ravishda kiritilgan folklor motivi yoki syujet orqali matnga qo'shimcha falsafiy-didaktik mazmun beradi, tasvirning emotsional kuchini oshiradi va badiiy ifodani boyitadi. Ular ijodkorning individual uslubi va badiiy mahoratiga bog'liq holda turli shakllarda namoyon bo'lib, adabiyot taraqqiyotining deyarli barcha bosqichlarida uchraydi. Analitik folklorizmlar xalqona tafakkur bilan yozma adabiyot orasidagi uzviy aloqani ko'rsatib, badiiy matnning ramziy va ma'noviy qatlamlarini chuqurlashtiradi.

**Rezume**. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda analitik folklorizmlarning mohiyati, turlari va badiiy vazifalari tahlil qilinadi. Folklorizm tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, analitik folklorizm murakkab folklorizmning bir ko'rinishi sifatida izohlanadi. Tadqiqotda B.Sarimsoqov, I.Yormatov va L.Sharipova tomonidan ilgari surilgan tasniflar qiyosiy tahlil qilinadi hamda analitik folklorizmlarning syujet va kompozitsiya tizimidagi o'rni aniqlanadi. Shuningdek, klassik va zamonaviy adabiyot namunalarida analitik folklorizmlarning badiiy ifodadagi roli ochib beriladi. Maqolada analitik folklorizmlar asar g'oyasini ramziy va falsafiy jihatdan boyitishi, qahramon ruhiyati va voqealar tizimini ochib berishga xizmat qilishi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi.

**Resume**. This article examines the essence, types, and artistic functions of analytical folklorisms in literary works. The theoretical foundations of the concept of folklorism are discussed, and analytical folklorism is interpreted as one of the forms of complex folklorism. The study provides a comparative analysis of the classifications proposed by B. Sarimsoqov, I. Yormatov, and L. Sharipova and determines the place of analytical folklorisms within the plot and compositional structure of literary texts. Furthermore, the role of analytical folklorisms in artistic expression is revealed through examples from classical and modern literature. The article demonstrates that analytical folklorisms contribute to the symbolic and philosophical enrichment of the work's idea and serve to disclose the psychological state of characters and the system of events.

**Резюме**. В данной статье анализируются сущность, виды и художественные функции аналитических фольклоризмов в художественной литературе. Освещаются теоретические основы понятия фольклоризма, при этом аналитический фольклоризм рассматривается как одна из форм сложного фольклоризма. В исследовании проводится сопоставительный анализ классификаций, предложенных Б. Саримсоқов, И. Ёрматов и Л. Шарипова также определяется место аналитических фольклоризмов в системе сюжета и композиции произведения. Кроме того, раскрывается роль аналитических фольклоризмов в художественном выражении на материале классической и современной литературы. В статье научно обосновывается, что аналитические фольклоризмы способствуют символико-философскому углублению идеи произведения, раскрытию психологии персонажей и системы событий.

[1] **Mamayusupova S.** Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o'rni : Filol. fan. bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. – Jizzax, 2024.